

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI.

Djasanov G‘ayrat Ibragimovich

Qashqadaryo viloyati, Xonobod qo‘rg‘oni 10329 – harbiy qism

E-mail: gayratjasanov@gmail.com

Djasanova Yeshoda Ma‘rifovna

Qarshi Davlat Universiteti 2 kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy gvardiya va harbiy xizmatchilarining psixologik tayyorgarligini takomillashtirishda psixologik barqarorlikni shakllantirishning bir qator omillari asosida olib borish, hamda ushbu omillarni egallash ko‘nikmalarini shartlari asoslab berilgan.

Kalit so‘z: Harbiy xizmatchi, axloqiy, ruhiy, jismoniy tayyorgarlik, professional diqqat, professional fikrash, professional qabul qilish, professional xotira, stressli omillar, psixologik barqarorlik.

THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL TRAINING IN THE ACTIVITIES OF MILITARY PERSONNEL

Abstract: This article substantiates the conditions for the formation of psychological stability in the improvement of psychological training of the National Guard and military personnel, as well as the skills to master these factors.

Keyword: Military man, Moral, mental and physical training, professional attention, professional thinking, professional acceptance, professional memory, stress factors, psychological stability

Bugungi globallashuv va murakkab, shiddatli davrda yashar ekanmiz yoshlarimizni vatanparvarlik, millatparvarlik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalashda juda ko‘plab muammolarga duch kelmoqdamiz. Yoshlarimizning ongida va dunyoqarashida kreativlik, tashabbuskorlik, halollik, jonkuyarlik, hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish salohiyatini shakllantirish masalasi, ularning ruhiy jihatdan chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Darxaqiqat, bugungi globallashuv va tez sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan murakkab va shiddatli davrda mamlakatimiz yoshlari ma’naviyatini yuksaltirish xamda turli taxdidlardan asrash, ularning xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub moxiyatini anglab yetishi, ushbu voqeliklar yuzasidan xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lishi, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakat tinchligini va xafsizligini ta’minlash har bir davlatning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz yoshlari o‘rtasida harbiy sohada xizmat qilayotgan vatanparvar yigit va qizlarimiz tinchligimiz posbonlaridir. Ular oddiy yoshlardan ham ruhan, ham jismonan kuchli ekanliklari bilan ajralib turadilar. Harbiy xizmatchi deganda, ko‘z oldimizga haqiqiy millatparvar, mard va jasur, vatan ozodligi va xalq tinchligi uchun o‘z jonini ayamaydigan o‘g‘lonlar keladi. Bu yigitlar ham boshqalar qatori oilada, hamkasblar o‘rtasida, xizmat faoliyati davomida turli muammolarga duch keladilar. Tabiiyki, muammolarning asl sabablari bir-birini tushunmaslikdan kelib chiqadi. Bunday muammolarning keskinlashishi harbiy xizmatchining ruhiy holatiga ta’sir etadi albatta. Bu muammolarni bartaraf etishning muhim omillaridan biri harbiy xizmatchilarning hayotiy va ilmiy psixologiyani bilishlaridir. Psixologik bilimlar bilan qurollanishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, harbiy soha xodimi o‘z ishining sifati va samaradorligini oshirishi uchun o‘zining imkoniyatlarini bilish bilan birga o‘zgalarning imkoniyatlari hamda xatti-harakatlarini bashorat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Bunday maqsadlar esa psixologik bilimlarni talab etadi. Inson

o‘zining ruhiy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olgan taqdirdagina hayotda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Barkamollik tomon intilayotgan inson psixologik jihatdan doimo o‘zining imkoniyatlari, yutuqlari va kamchiliklarini bilib yurishi kerak bo‘ladi. Aniqroq qilib aytganda, inson o‘zini shaxs sifatida tavsiflay olish qobiliyatiga ega bo‘lgan paytdan boshlab unda kamolot sari qadam tashlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun psixologiyani bilimlar tizimi sifatida o‘zlashtirish katta nazariy va amaliy yordam bo‘lishi shubhasizdir. Psixologiyaning eng ahamiyatli tomoni shundaki, psixologik bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirgan inson o‘z-o‘zini anglay boshlaydi, yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi hamda zaruriy hollarda ularga muayyan o‘zgartirishlar kiritadi. Psixologik bilimlarni o‘zlashtirish komandirlarga qo‘l ostidagi harbiy xizmatchining ichki dunyosida nimalar kechayotganligini yaxshiroq tushunish, “ko‘ngliga qo‘l solish” hamda uning psixik rivojlanishida ko‘rinib turgan kamchiliklarni tuzatish uchun nihoyatda zarurdir. Shuningdek, psixologik bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirish samarali muomala va muloqot o‘rnatish yo‘lida ko‘makchi vazifasini o‘tashi mumkin. Psixologiyani o‘rganish harbiy xizmatchiga aqliy salohiyatni o‘stirish, xotirani kuchaytirish, diqqat kuchini oshirish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda yangi bilim va ko‘nikmalarni tez va oson o‘zlashtirish imkonini beradi. Muayyan psixologik bilimlarga ega bo‘lgan inson o‘z fikr mulohazalarini boshqalarga qaraganda nutqda to‘g‘ri ifodalay oladi hamda o‘zgalarning nutqini to‘g‘ri tushuna oladi; o‘zining aql-idrokini, psixik jarayonlarini puxta bilib oladi hamda ularga e‘tiborini qaratadi; aqliy faoliyatni hamda psixik jarayonlarni kuchaytiruvchi yo‘llarni bilib oladi va o‘z ruhiyatini tizimli ravishda tarbiyalab, toblab, shakllantirib boradi. Harbiy xizmatchining psixologik bilimlari nafaqat o‘zi uchun, balki boshqalar bilan munosabatlar jarayonida ham qo‘l keladi. Har qanday muammoni yechimini topishda ilmiy va psixologik yondoshuvni amalga oshirishni ta‘minlaydi.

Harbiy xizmatchi uchun jismoniy va ruxiy tayyorgarlik xizmat faoliyatida hal qiluvchi omillardan biridir. Bu borada ularni qo‘llab-quvvatlash xizmat

davomidagi muvaffaqiyatlarning garovidir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 10 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xavfsizlik kengashining yig‘ilishida “Men harbiy xizmatchilarimizning jismonan va ruhiy tayyorgarligi bilan bog‘liq bir qator muammolarga e‘tibor qaratmoqchiman. Nega deganda, jismoniy tayyorgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, harbiy karyerasida va umuman, turmush tarzida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lishi zarur. Harbiy xizmatchilarning ruhiy jihatdan chidamligi bo‘lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘laётgan qurolli to‘qnashuvlarda ko‘zga tashlanaётgan bir holatga e‘tiboringizni qaratmoqchiman. Ya’ni, jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o‘rtasidagi yo‘qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta’sir va zarbalar bilan bog‘liq ekani ma’lum bo‘lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch sharoitda ham davolash juda murakkab masaladir”[1] -deb ta’kidlab o‘tgan edilar.

Harbiy xizmatchilari turli xizmat qiyinchiliklariga, ya’ni fuqarolar, huquqbuzarlar, jinoyatchilar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil qarshiliklarga, tazyiqlarga, bildirilgan salbiy munosabatlarga uchrashi mumkin. Bunday vaziyatlarda harbiy xizmatchilardan xushmuomalada bo‘lish, muloqatga kirishib ketish, tezkorlik bilan qaror qabul qilish, qat’iyatli bo‘lish, hissiyotlarga berilmaslik va kuchli irodali bo‘lish kabi psixologik xususiyatlarni egalashni taqazo etadi. Demak, xarbiy xizmatchilar nafaqat jismoniy, balki psixologik tayyorgarlikdan o‘tishlari ham muhim vazifa sanaladi. Harbiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan psixolog Ch.Nasriddinovning ta’rificha, “psixologik tayyorgarlik – harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarda jangovar vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘ladigan psixologik sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus chora tadbirlar tizimidir”[2] -deb ta’kidlab o‘tgan. Harbiy sohada ko‘plab tadqiqotlar olib borgan harbiy psixolog olim A.G.Karayaning ta’kidlashicha, “harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda psixologik fazilatlarini shakllantirish, ularning jang maydonidagi faol va samarali harakatlarga

psixologik tayèrgarligini va zamonaviy kurash vositalari ta'siriga qarshilik ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan o'zaro bog'liq chora-tadbirlar tizimini aks ettiradi"[3] deb ta'kidlab o'tgan. Aynan psixologik tayyorgarlikning yo'qligi harbiy xizmatchilarda sarosimaga tushish, o'zini boshqara olmaslik, o'zini yo'qotib qo'yish, qo'pollik, dag'allik, qonunni buzish, jiddiy kasbiy buzilishlarga yo'l qo'yish kabi nojo'ya xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Darhaqiqat, psixologik tayyorgarlikning mohiyati psixotravmatik omillar muhitida ayrim harbiy xizmatchilar va harbiy qismlarda jangovar-xizmat faoliyatda sodir bo'layotgan voqealar bo'yicha harakat qilish, tahlikali tendensiyalarni aniqlash, ularga o'z vaqtida va to'g'ri javob berish imkoniyatini beradigan psixologik xususiyatlarni samaradorligini oshirish va faollikni saqlash hisoblanadi. Harbiy psixologik tayyorgarlik mamlakatimizning harbiy salohiyatini oshirishda, harbiy xizmatchilarning professional bilimlarini oshirishda, har qanday tahlikali vaziyatlardan ustalik bilan chiqib ketish va sharaflı burchlarini bajarishda shubhasiz muvaffaqiyatlar garovi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyev. Xavfsizlik kengashining yig'ilishidagi ma'ruzasidan. Toshkent. <https://www.Gazeta.uz/10.01.2018>.
2. Ch.Nasriddinov. Harbiy psixologiya. T., 2004. 126 b.
3. Karayani A.G., Voyennaya psixologiya. Chast 2. M., Yurayt, 2016, 132 str.